P.V. GORA VA BOSHQA METODISTLARNING TARBIYAVIY QARASHLARI HAMDA DARSNI KUZATISH VARAQASINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

G‘oyibnazarov Rahmatilla

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonova Muxlisa

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Dinshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada metodist P.V. Goraning dars mazmunidagi tarbiyaviy imkoniyatni aniqlashga oid qarashlari va ularni darsni kuzatish amaliyotiga tatbiq etish masalasi ko‘rib chiqiladi. Goraning struktura-funksional tahlil usuli, uning M.V. Korotkova va M.T. Studenikin tomonidan rivojlantirilishi, Yu.A. Konarjevskiyning dars tahlili tizimi va zamonaviy standartlashtirilgan kuzatuv modellari qiyoslanadi. Natijada darsni kuzatish varaqasini tuzishning yetti tamoyili va besh bo‘limli varaqa tuzilmasi taklif etiladi. Varaqa darsning rejalashtirilgan tarbiyaviy imkoniyatidan boshlanib, uning qanchalik ro‘yobga chiqqanini kuzatiladigan dalillar orqali qayd etadi.

Kalit so‘zlar: P.V. Gora, tarbiya metodikasi, struktura-funksional tahlil, darsni kuzatish, dars tahlili, kuzatish varaqasi, ta’lim sifati, refleksiya.

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды методиста П.В. Горы на выявление воспитательного потенциала содержания урока и возможности их применения при наблюдении урока. Сравниваются метод структурно-функционального анализа П.В. Горы, его развитие в работах М.В. Коротковой и М.Т. Студеникина, система анализа урока Ю.А. Конаржевского и современные стандартизированные модели наблюдения. Предложены семь принципов

составления листа наблюдения урока и его пятичастная структура. Лист начинается с запланированного воспитательного потенциала урока и фиксирует его реализацию через наблюдаемые свидетельства.

Ключевые слова: П.В. Гора, методика воспитания, структурно-функциональный анализ, наблюдение урока, анализ урока, лист наблюдения, качество обучения, рефлексия.

Abstract. The article examines P.V. Gora's views on identifying the educational (upbringing) potential of lesson content and how they can inform lesson observation. It compares Gora's structural-functional analysis of historical material, its development by M.V. Korotkova and M.T. Studenikin, Yu.A. Konarzhevsky's system of lesson analysis, and current standardised observation frameworks. Seven principles for designing a lesson observation sheet and a five-part sheet structure are proposed. The sheet starts from the educational potential planned for the lesson and records, through observable evidence, how far it was realised.

Keywords: P.V. Gora, methods of moral education, structural-functional analysis, lesson observation, lesson analysis, observation sheet, teaching quality, reflection.

KIRISH

Maktabda darsni kuzatish varaqalaridagi bandlar odatda dars bosqichlari, vaqt taqsimoti, koʻrgazmali qurollar va oʻquvchilar faolligi atrofida aylanadi. Tarbiyaviy maqsad esa koʻpincha "erishildi" degan bitta belgi bilan cheklanadi va bu belgi qanday dalilga tayanganini varaqadan bilib boʻlmaydi.

Muammo "Tarbiya" fani joriy etilgach keskinlashdi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qaroriga koʻra, bu fan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida bosqichma-bosqich oʻqitila boshlandi [7]. Fanning asosiy natijalari qadriyatli munosabat va xulq bilan bogʻliq. T. Likona xarakterni yaxshilikni bilish, xohlash va qilish birligi deb taʼriflagan [5]; kuzatish varaqasi bu qatlamlarning hech boʻlmaganda darsda koʻrinadigan qismini qayd eta olishi kerak.

Shu nuqtada sovet tarix o‘qitish metodikasi maktabining merosi qayta o‘qishga arziydi. Professor P.V. Gora 80 ga yaqin ilmiy-metodik ish muallifi [15]. Uning "O‘rta maktabda tarix o‘qitish samaradorligini oshirish" kitobida bayon qilingan struktura-funksional tahlil usuli mavzu materialidan qanday tarbiyaviy imkoniyat kelib chiqishini darsdan oldin aniqlash yo‘lini ko‘rsatadi [14]. N.S. Donskaya bu maktab yetarlicha o‘rganilmaganini qayd etsa [15], V.M. Antonov uning ko‘plab g‘oyalari ahamiyatini saqlab qolganini ta’kidlaydi [12].

Xalqaro adabiyotda dars kuzatuvi standartlashtirilgan protokollar va ularning ishonchliligi orqali rivojlandi [1; 3]. Bu modellarda sinf muhiti yaxshi o‘lchanadi, lekin aniq dars mazmunining tarbiyaviy imkoniyati deyarli hisobga olinmaydi. Gora an’anasi esa mazmun tahliliga kuchli, kuzatuv vositasi masalasida jim.

Tadqiqot maqsadi P.V. Gora va unga yaqin metodistlarning tarbiyaviy maqsadni dars mazmunidan keltirib chiqarishga oid qarashlarini tahlil qilish va shu asosda darsni kuzatish va tahlil qilish varaqasini shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqishdir.

METODLAR

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Taklif etilayotgan varaqani sinovdan o‘tkazish bo‘yicha empirik ma’lumot hali yo‘q, shu bois natijalar raqamli ko‘rsatkichlar emas, tamoyillar tizimi va varaqa tuzilmasi sifatida beriladi.

Avval P.V. Goraning asarlari [13; 14], ular haqidagi tadqiqotlar [12; 15] va uning shogirdi M.V. Korotkovaning M.T. Studenikin bilan yozgan qo‘llanmasi [17] tarixiy-pedagogik tahlil qilindi.

So‘ng dars tahlilining to‘rt yondashuvi qiyoslandi: Gora va Korotkova an’anasi, Yu.A. Konarjevskiyning dars tahlili tizimi [16], Ch. Danielson modeli [2] hamda R. Pianta va B. Hamre [8], A.-K. Praetorius va hammualliflari [9] taklif etgan dars sifati o‘lchovlari. Qiyoslash mezonlari varaqa tuzuvchi duch keladigan savollardan olindi: tahlil birligi nima, tarbiyaviy jihat qayerda joylashgan va baho qanday dalilga tayanadi.

Nihoyat, kuzatuv tizimlari sifatiga oid ishlar [4; 6] va refleksiv amaliyot nazariyasi [10] asosida xulosalar tamoyillar va varaqa tuzilmasiga keltirildi.

NATIJALAR

Gora qarashlarining tarbiyaviy mazmuni. Gora tizimida tarbiyaviy maqsad dars mazmunidan o‘sib chiqadi. Uning fikricha, mavzu mazmunining o‘zi umumtarixiy maqsadlarning qaysi qismlarini ro‘yobga chiqarish mumkinligini ko‘rsatadi [14, b. 23]. Bu qoidaning amaliy oqibati katta: o‘qituvchi tarbiyaviy maqsadni darslik paragrafini tahlil qilmasdan turib shakllantirsa, u umumiy va tekshirib bo‘lmaydigan iboraga aylanadi.

Struktura-funksional tahlil shu xatoning oldini oladi. N.S. Donskaya tavsifiga ko‘ra, o‘qituvchi avval mavzuning asosiy faktologik mazmunini beradigan faktlarni, so‘ng tarbiyaviy salohiyati past ikkinchi darajali faktlarni, keyin o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan nazariy qoidalarni ajratadi va shundan keyingina dars maqsadlarini ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlardan kelib chiqib shakllantiradi [15]. Hissiy ta’sirga ega faktlar alohida o‘rin tutadi: ular o‘quvchida mamlakat tarixiga qadriyatli munosabatni shakllantiradi va mavzuga qiziqishni oshiradi [15].

Gora ko‘rgazmali vositani ham o‘quvchilar ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini tushunib yetishiga tayanch deb bilgan [13]. Donskaya uni tizimli-faoliyatli yondashuv tarafdori sifatida ko‘rsatadi va pedagogik ijodkorlik o‘qituvchiga o‘z qobiliyatini ochish imkonini beradi, degan fikrini keltiradi [15].

Korotkova va Studenikin bu usulni sxema va jadvalga keltirib, har bir fakt yoki nazariy qoida yuzasidan o‘qituvchi beradigan savollar ro‘yxatini tuzgan [17]. Bizningcha, shu savollar kuzatish varaqasi uchun tayyor material: o‘qituvchi darsdan oldin o‘ziga bergan savollarni kuzatuvchi dars davomida tekshiradi.

Dars tahlili yondashuvlarining qiyosi. Yu.A. Konarjevskiy darsni yaxlit tizim sifatida ko‘rib, tahlilning bir necha turini, jumladan, qisqa, strukturaviy, aspektli va kompleks tahlilni farqlagan [16]. Uning yondashuvida dars maqsadi tahlilning

boshlang‘ich nuqtasi. Bu Gora mantiqiga yaqin, ammo Konarjevskiy maqsadga qanday erishilganini tahlil qiladi, Gora esa maqsadning o‘zi qanday shakllanishini.

Standartlashtirilgan modellar tahlil birligini o‘zgartirdi. Danielson o‘qituvchi faoliyatini to‘rt soha (rejalashtirish, sinf muhiti, ta’lim berish, kasbiy mas’uliyat) bo‘yicha to‘rt darajali shkalada baholaydi [2]. Pianta va Hamre emotsional qo‘llab-quvvatlash, sinfni tashkil etish va o‘quv yordamini [8], Praetorius va hammualliflari sinfni boshqarish, o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash va kognitiv faollashtirishni [9] ajratadi. Bu modellar ataylab har qanday fan darsiga mos qilib yaratilgan.

Qiyos shuni ko‘rsatadiki, Gora an’anasi tarbiyaviy maqsadni aniq belgilaydi, ammo kuzatuv vositasini bermaydi; xalqaro modellar ishonchli vosita beradi, ammo aniq dars mazmunining tarbiyaviy imkoniyatini ko‘rmaydi. Taklif etilayotgan varaqa shu ikkisini birlashtiradi.

Kuzatish varaqasini shakllantirish tamoyillari. Tahlil asosida yetti tamoyil ajratildi.

Birinchisi, mazmundan kelib chiqish. Varaqa o‘qituvchi darsdan oldin aniqlagan tarbiyaviy imkoniyatdan boshlanadi: o‘qituvchi tayanch faktlar va ulardan kutilayotgan qadriyatli munosabatni qisqacha yozib beradi.

Ikkinchisi, kuzatiladiganlik. "O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usi shakllandi" degan band kuzatuvchining farazini qayd etadi. Uning o‘rniga "o‘quvchilar faktga o‘z munosabatini bildirib, uni asosladi" kabi ko‘rinadigan xatti-harakat yoziladi. C. Bell va hammualliflari ko‘rsatkichlarning aniq tavsiflanishini kuzatuv tizimi sifatining asosiy talablaridan biri deb hisoblaydi [1].

Uchinchisi, o‘qituvchi harakati va o‘quvchi javobini ajratish: tarbiyaviy vaziyat yaratilgani hali o‘quvchilar unga javob berganini anglatmaydi. To‘rtinchisi, fokuslilik. Konarjevskiyning tahlil turlari [16] ko‘rsatganidek, bitta darsda hamma narsani bir xil chuqurlikda kuzatib bo‘lmaydi, shuning uchun umumiy sifat ko‘rsatkichlari qisqa, tarbiyaviy jihat esa batafsil beriladi.

Beshinchisi, ishonchlilik. H. Hill, C. Charalambous va M. Kraft kuzatuvchilar baholarining mos kelishi hali tizim ishonchli ekanini anglatmasligini, ball dars, kuzatuvchi va kuzatuv sanasiga ham bog‘liqligini ko‘rsatgan [3]. Demak, xulosa bir necha kuzatuvdan chiqariladi, kuzatuvchilar esa oldindan bir xil video yozuv asosida kelishib oladi.

Oltinchisi, rivojlantiruvchi maqsad. M. O'Leary attestatsiyaga bog‘langan, ball qo‘yiladigan kuzatuv o‘qituvchini "namoyish darsi" o‘tishga undashini ko‘rsatadi [6]. Shu sababli varaqaning yakuniy qismi ball emas, kuzatuvdan keyingi suhbat savollaridan iborat.

Yettinchisi, umumiy va fanga xos ko‘rsatkichlar muvozanati. Praetoriusning uch o‘lchovi har qanday darsga taalluqli [9], tarbiyaviy ta’sir qaysi material orqali amalga oshgani esa fanga xos savol. L. Shulman ta’riflagan pedagogik mazmun bilimi [11] bu yerda axloqiy masalani o‘quvchi hayotiga yaqin vaziyatga bog‘lay olishda ko‘rinadi.

Varaqa tuzilmasi. Tamoyillar varaqaning besh bo‘limli tuzilmasida aks ettirildi (1-jadval).

1-jadval. Darsni kuzatish va tahlil qilish varaqasining tuzilmasi

Bo‘lim	**Kim va qachon to‘ldiradi**	**Mazmuni va namunaviy ko‘rsatkichlar**
1. Darsning tarbiyaviy imkoniyati	O‘qituvchi, darsdan oldin	Tayanch faktlar va nazariy qoidalar; ulardan kutilayotgan qadriyatli munosabat; buni ko‘rsatadigan o‘quvchi xatti-harakati
2. Umumiy dars sifati	Kuzatuvchi, dars davomida	Sinfni boshqarish, o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash, kognitiv faollashtirish bo‘yicha qisqa qaydlar

3. Tarbiyaviy vaziyatlar: o‘qituvchi harakati	Kuzatuvchi, dars davomida	Vaziyat yaratilgan vaqt, qaysi faktga tayangani, berilgan savol yoki topshiriq
4. Tarbiyaviy vaziyatlar: o‘quvchi javobi	Kuzatuvchi, dars davomida	Munosabat bildirgan o‘quvchilar, javobning asoslanganligi, muhokamaga qo‘shilganlar
5. Kuzatuvdan keyingi suhbat	O‘qituvchi va kuzatuvchi birga, darsdan keyin	Rejalashtirilgan va amalga oshgan imkoniyat farqi, uning sabablari, keyingi darsga bitta aniq qadam

Birinchi bo‘lim Gora usulini kuzatuvga olib kiradi, beshinchi bo‘lim esa kuzatuvni o‘qituvchining o‘z darsi ustida fikr yuritishiga aylantiradi.

MUHOKAMA

Gora merosini bugungi amaliyotga ko‘chirishda ehtiyotkorlik kerak: uning usuli tarix materialida va sovet davri ta’lim maqsadlari doirasida shakllangan. Biz usulning g‘oyaviy mazmunini emas, mantiqiy tuzilishini, ya’ni maqsadni mazmundan keltirib chiqarish va aniq faktlarga bog‘lash talabini olamiz. Uni "Tarbiya" fani mavzulariga qo‘llash mumkinligini amaliy sinovsiz da’vo qilish erta.

Xalqaro adabiyot bilan qiyoslaganda bir qarama-qarshilik ko‘rinadi. Standartlashtirilgan modellar ishonchlilik uchun umumiylikni tanlagan [1; 8]; fanga xos tarbiyaviy ko‘rsatkichlar qo‘shilgan sari kuzatuvchi talqiniga joy kengayadi va ishonchlilik pasayishi mumkin. K. Klette video yozuvlarga asoslangan kuzatuv o‘qitishning umumiy tilini yaratishga yordam berishini ta’kidlaydi [4]. Bizningcha, amaliy yechim tarbiyaviy bo‘limda baho emas, dalil yozishdir: kuzatuvchi nima sodir bo‘lganini qayd etadi, talqin esa keyingi suhbatda o‘qituvchi bilan birga qilinadi.

D. Schönning refleksiv amaliyotchi haqidagi g‘oyasi [10] shu suhbatga tayanch bo‘ladi: o‘qituvchi rejalashtirgan tarbiyaviy imkoniyatni amalda sodir bo‘lgan narsa bilan solishtiradi va farq sababini o‘zi izlaydi. Biroq kuzatuv nazorat vositasi deb qabul qilinadigan muhitda bu bo‘lim ham rasmiy qaydga aylanishi mumkin.

Taklifning cheklovlari ham bor. Varaqa empirik sinovdan o‘tmagan, kuzatuvchilar o‘rtasidagi muvofiqlik darajasi noma’lum. Birinchi bo‘lim o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqt talab qiladi va rasmiyatchilikka aylanib ketishi mumkin. Bundan tashqari, bitta darsda qadriyatli munosabatning faqat tashqi ifodasi ko‘rinadi, xulqdagi barqaror o‘zgarishni dars kuzatuvi bilan aniqlab bo‘lmaydi.

XULOSA

P.V. Gora tarbiyaviy maqsadni dars mazmunidan keltirib chiqarish va aniq faktlarga bog‘lash zarurligini asoslagan. Korotkova va Studenikin savollar tizimiga keltirgan struktura-funksional tahlil darsning tarbiyaviy imkoniyatini oldindan aniqlash vositasi bo‘la oladi.

Shu asosda kuzatish varaqasini tuzishning yetti tamoyili va besh bo‘limli tuzilmasi taklif etildi: varaqa o‘qituvchi rejalashtirgan tarbiyaviy imkoniyatdan boshlanib, kuzatuvdan keyingi birgalikdagi tahlil bilan yakunlanadi. Keyingi bosqichda varaqani "Tarbiya" va tarix darslarida sinash va kuzatuvchilar o‘rtasidagi muvofiqlikni tekshirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bell, C. A., Dobbelaer, M. J., Klette, K., & Visscher, A. (2019). Qualities of classroom observation systems. School Effectiveness and School Improvement, 30(1), 3–29. https://doi.org/10.1080/09243453.2018.1539014

2. Danielson, C. (2007). Enhancing professional practice: A framework for teaching (2nd ed.). ASCD.

3. Hill, H. C., Charalambous, C. Y., & Kraft, M. A. (2012). When rater reliability is not enough: Teacher observation systems and a case for the generalizability study. Educational Researcher, 41(2), 56–64. https://doi.org/10.3102/0013189X12437203

4. Klette, K. (2023). Classroom observation as a means of understanding teaching quality: Towards a shared language of teaching? Journal of Curriculum Studies, 55(1), 49–62. https://doi.org/10.1080/00220272.2023.2172360

5. Lickona, T. (1991). Educating for character: How our schools can teach respect and responsibility. Bantam Books.

6. O'Leary, M. (2020). Classroom observation: A guide to the effective observation of teaching and learning (2nd ed.). Routledge.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-4885018

8. Pianta, R. C., & Hamre, B. K. (2009). Conceptualization, measurement, and improvement of classroom processes: Standardized observation can leverage capacity. Educational Researcher, 38(2), 109–119. https://doi.org/10.3102/0013189X09332374

9. Praetorius, A.-K., Klieme, E., Herbert, B., & Pinger, P. (2018). Generic dimensions of teaching quality: The German framework of Three Basic Dimensions. ZDM Mathematics Education, 50(3), 407–426. https://doi.org/10.1007/s11858-018-0918-4

10. Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.

11. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22. https://doi.org/10.17763/haer.57.1.j463w79r56455411

12. Антонов, В. М. (2020). О методическом наследии Петра Васильевича Горы. Преподавание истории и обществознания в школе, (5), 55–57.

13. Гора, П. В. (1971). Методические приемы и средства наглядного обучения истории в средней школе. Просвещение.

14. Гора, П. В. (1988). Повышение эффективности обучения истории в средней школе. Просвещение.

15. Донская, Н. С. (2020). Метод структурно-функционального анализа содержания исторического образования: к анализу научно-методического наследия профессора П. В. Горы. Педагогика. Вопросы теории и практики, 5(6), 760–765. https://doi.org/10.30853/ped200163

16. Конаржевский, Ю. А. (2000). Анализ урока. Центр «Педагогический поиск».

17. Короткова, М. В., & Студеникин, М. Т. (1999). Методика обучения истории в схемах, таблицах, описаниях: практическое пособие для учителей. ВЛАДОС.